

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
SAN’ATSHUNOSLIK INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.San.51.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
SAN’ATSHUNOSLIK INSTITUTI**

TUROBOVA MALOXAT ABDURAXIM QIZI

ZAMONAVIY O‘ZBEK QO‘G‘IRCHOQ TEATRI REJISSURASI

17.00.01 – Teatr san’ati

**san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**San’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
искусствоведению**

**Contents of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on art
sciences**

Turobova Maloxat Abduraxim qizi Zamonaviy o‘zbek qo‘g‘irchoq teatri rejissurasi.....	3
Туробова Малохат Абдурахим кизи Режиссура современного узбекского кукольного театра.....	24
Turobova Malokhat Abdurahim qizi Directing in modern Uzbek Puppet Theater.....	44
E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati Список опубликованных работ List of published works.....	47

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
SAN‘ATSHUNOSLIK INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.San.51.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР АКАДЕМИЯСИ
САНЪАТШУНОСЛИК ИНСТИТУТИ**

TUROBOVA MALOXAT ABDURAXIM QIZI

ZAMONAVIY O‘ZBEK QO‘G‘IRCHOQ TEATRI REJISSURASI

17.00.01 – Teatr san‘ati

**San‘atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/San216 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi San‘atshunoslik institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume))Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.fineartins.uz) hamda “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ismoilov Anvar Xamdamjonovich
san‘atshunoslik fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD), katta ilmiy xodim

Rasmiy opponentlar:

Karimova Nigora G‘aniyevna
san‘atshunoslik fanlari doktori,
professor

Umarov Ma‘mur Botashikovich
falsafa fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi San‘atshunoslik instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019. San.5101 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil “___” _____ soat ___dagi majlisda bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100029, Toshkent shahar, Mustaqillik maydoni, 2. Tel.: (+99871) 239-46-67; faks: (+99871) 239-17-71; ye-mail: siti1928@mail.ru).

Dissertatsiya bilan O‘zR FA San‘atshunoslik instituti kutubxonasida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100029, Toshkent shahar, Mustaqillik maydoni, 2. Tel.: (+99871) 239-46-67; faks: (+99871) 239-17-71; ye-mail: siti1928@mail.ru).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil “___” _____ kuni tarqatiladi.
(2025 yil “___” _____dagi _____-reestr bayonnomasi).

A.A.Xakimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
san‘atshunoslik fanlari doktori, professor,
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi,
O‘zbekiston Badiiy akademiyasi akademigi

A.A.Ziyayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash a‘zosi,
arxitektura fanlari doktori, professor

I.A.Muxtarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
san‘atshunoslik fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Ommaviy kommunikatsiya sohasida jadal rivojlanayotgan raqamli texnologiyalar axborotni idrok etishning vizual shakllari ustunligiga olib kelmoqda. Tasviriy ijod namunalarining tezkor tarqalishi va xilma-xilligi yosh avlodning dunyoni idrok etishiga ta'sir o'tkazmoqda va bolalarda qo'g'irchoq teatriga bo'lgan qiziqishning pasayishiga sabab bo'lmoqda. Shu bois hozirgi davr qo'g'irchoq teatri rejissurasi zamon talablari asosidagi, yangi shakllar hamda uslublarga, noan'anaviy sahna talqinlariga tayanib rivojlanmoqda va o'zining zamonaviy qiyofasini topishga intilishi bilan dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon san'atshunoslik ilmidagi qo'g'irchoq teatri rejissurasining shakllanish hamda rivojlanish bosqichlari va uning asosiy yo'nalishlarini aniqlash yuzasidan tadqiqotlar olib borilmoqda. Tadqiqotlarda qo'g'irchoq teatri rejissurasining o'ziga xos san'at turi sifatidagi o'rni, sahnaviy xarakter yaratish tamoyillari, qo'g'irchoqni harakatlantirish usublari, aktyorlik ijrosi, ssenografiya yechimi, qo'g'irchoq yasash texnologiyasi, musiqa, animatsiya singari komponentlar bilan sintezi kabi masalalar o'z aksini topmoqda. Shu o'rinda zamonaviy qo'g'irchoq teatri rejissurasining bolalar bilimi va madaniyati rivojiga ta'siridagi o'rnini va ahamiyatini yoritadigan tadqiqotlarni amalga oshirish zarurati yuzaga kelmoqda.

O'zbekistonda qo'g'irchoq teatrining badiiy jihatdan yanada taraqqiy etishiga, zamon talablariga mos tarzda rivoj topishiga alohida ahamiyat qaratib kelinmoqda. Natijada qo'g'irchoq teatrlari uchun professional rejissyorlarni tayyorlash muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda. O'zbek qo'g'irchoq teatrining keyingi rivoji yo'lidagi mavjud muammolarning yechimiga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga e'tiborni kuchaytirish zarur bo'lmoqda. "Jahondagi eng ommaviy va ta'sirchan san'at turlaridan biri bo'lgan teatr asrlar davomida odamlarni insoniylik va ezgulikka chorlab, ularning qalbida olijanob fazilatlar, go'zal his-tuyg'ularni kamol toptirishga, jamiyat hayotida tinchlik, do'stlik va hamjihatlik, yuksak axloq va adolat tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qilib kelmoqda"¹. Zamonaviy o'zbek qo'g'irchoq teatri rejissurasi taraqqiyotining asosiy bosqichlarini aniqlash, yutuq va muammolarini belgilash, mustaqillik davridagi zamonaviy tendensiyalarni asoslash dolzarb ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yilning 26-maydagi PF-6000-son "O'zbekiston Respublikasi madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil-28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari, 2017-yil 31-maydagi PQ-3022-son "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida", 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022-yil 2-fevraldagi PQ-112-son "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2024-yil 22-noyabrdagi PQ-399-son

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning O'zbekiston san'ati xodimlariga so'zlagan nutqi // <https://yuz.uz/news/ozbekiston-teatr-sanati-xodimlariga>

“Teatrlarning jamiyat madaniy hayotidagi ahamiyatini oshirish va ular faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustivor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy-ma‘rifiy rivojlanishida innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustivor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Qo‘g‘irchoq teatri san‘atining nazariy jihatlarini ko‘plab mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning e‘tiborini tortgan. Dissertatsiya ishini tadqiq etishda o‘zbek teatr tadqiqotchilari asarlari bilan bir qatorda, jahon ilmiy adabiyotlaridan ham unumli foydalanildi. Xususan, Yevropa qo‘g‘irchoq teatri san‘atining tarixiy rivojlanish bosqichlari E.Mendron, Sh.Manen, P.Ferrini, G.Bati, E.Kreg, X.Yurkovskiy² kabi tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan.

Qo‘g‘irchoq teatri nazariyasi bo‘yicha rus tadqiqotchilarining asarlari yetakchi o‘rinda turadi. Bu borada A.Vasilkova, Y.Demmeni, A.Minakova, Y.Kozyurenko, M.Korolyov, S.Obrazsov, N.Simonovich-Yefimova, N.Aleksandrova, Y.Kolmanovskiy, N.Smirnova, O.Polyakova, A.Fedotov³ va boshqa tadqiqotchilarni keltirish mumkin.

MDH mamlakatlarida amalga oshirilgan qo‘g‘irchoq teatri san‘atiga oid kam sonli ilmiy izlanishlar orasida Y. Juasbekovning qozoq qo‘g‘irchoq teatri shakllanishi

² Мендрон Э. Марионетки и гиньоли. Пер. Е. И. Лосевой. Маш. копия. Архив Музея ГАЦТК, ед. хр. И-37, 136 л.; Маньен Ш. История марионеток в Европе / Литерат. пер. с франц., Б.Голдовского. – Москва: Канон, 2017. – 288 с.; Феррини П. История марионетки. – Москва: [б.и.], 1990. – 213 с.; Бати Г. Завещание // Театр кукол зарубежных стран. – Ленинград–Москва: Искусство, 1959. – С. 144-156.; Юрковский Х. Из истории взглядов на театр кукол // Что же такое театр кукол? В поисках жанра: сб. статей. – Москва: ВТО, 1980. – С.44-76.; Крэг Э. Актер и сверхмарионетка // Крэг Г. Воспоминания. Статьи. Письма. – Москва: Искусство, 1988. – С. 212-233.; Юрковский Х. Четыре принципа // Театр. – 1987. – № 7. – С. 99-102.

³ Василькова А. Душа и тело куклы. – Москва: АГРАФ, 2003. – 224 с.; Деммени Е. Театр марионеток // Кукольные театры Лен ТЮЗ: сборник статей/Под ред. Н. Верховского. – Ленинград. – Москва: ОГИЗ, 1934. – С. 15-19.; Деммени Е. Игра живых актёров в театре кукол // Кукольные театры Лен ТЮЗ: сборник статей/Под ред. Н. Верховского. – Ленинград. – Москва: ОГИЗ. 1934. – С. 9-14.; Минакова А. Детализация художественного оформления спектакля театра анимации // В мире науки и искусства: вопросы филологии, искусствоведения и культурологии. – 2014. – № 41. – С. 146-151.; Козыренко Ю. Звуковое оформление спектакля. – Москва: Сов. Россия, 1972. – 110 с.; Королев М. Искусство театра кукол. – Ленинград. – Москва: Искусство, 1973. – 112 с.; Образцов С. Актер с куклой. – Ленинград. – Москва: Искусство, 1938. – 172 с.; Образцов С. Моя профессия. – Москва: Искусство, 1981. – 464 с.; Образцов С. По ступенькам памяти. – Москва: Время, 2002. – 320 с.; Образцов С. Кукольные театры разных стран // Театр. – 1959. - № 3. – С. 172-176; Образцов С. Режиссер условного театра. Москва: Упр. по охране авт. прав, 1941. – 36 с.; Образцов С. Что же это такое – кукла? // Что же такое театр кукол? В поисках жанра. Сб. статей. – Москва: ВТО, 1980. – С. 7-22; Симонович-Ефимова Н. Записки художника. – Москва: Советский художник, 1982. – 422 с.; Александрова Н. О музыке в театре кукол // Что же такое театр кукол. – Москва: ВТО, 1980. – С. 135-146; Колмановский Е. Театр кукол, день сегодняшний: из записок критика. – Ленинград–Москва: Искусство, 1977. – С. 118-120; Смирнова Н. Искусство играющих кукол. Смена театральных систем. – Москва: Искусство, 1983. – 270 с.; Полякова О. Решение сценического пространства в спектаклях Государственного академического Центрального театра кукол: автореф. дис. канд. искусствовед. – Москва:1988. – 21 с.; Федотов А. Техника театра кукол. – Москва: Искусство, 1953. – 210 с.

va rivojlanishi, A.Eshmuradovanning⁴ qozoq qo'g'irchoq teatri rejissurasiga oid tadqiqotlari alohida ahamiyat kasb etadi.

An'anaviy qo'g'irchoq teatri bo'yicha B.Goldovski, M.Dmitrievskaya, I.Solomonik, Y.Romanovskiy, N.Nurjanov⁵, o'zbek xalq qo'g'irchoq teatri to'g'risida L.Kostenko, N.Ostroumov, N.Likoshin, A.Samoylovich, V.Bartold, M.Gavrilov, L.Perepelitsina, M.Rahmonov, M.Qodirov kabi olimlar⁶ tadqiqotlar olib borgan. Zamonaviy o'zbek qo'g'irchoq teatri san'atiga oid M.Ashurova, V.Yusupova, Sh.Hayitbayev, I.Turdiyeva, M.Ubaydullayeva, F.Qobilova, B.Mamatqulov, M.Umarxodjayevaning⁷ qo'g'irchoq teatri dramaturgiyasi, rejissurasi, qo'g'irchoq boshqarish texnikasiga oid o'quv qo'llanmalari va tadqiqotlari, qo'g'irchoq teatri musiqasiga oid Z.Muradova (Maxmudova)ning⁸ ilmiy materiallari,

⁴Жуасбеков Е. Формирование и развитие казахского кукольного театра. Авт. Дисс. на соис. канд. филос. наук. – Алматы: 1994. – 21 с.; Ешмуратова А. Режиссура казахского театра кукол: генезис, эволюция, модернизация. Дисс. на соис. канд. филос. (PhD). – Алматы: 2019. – 163с.

⁵ Голдовский Б. История драматургии театра кукол: монография. – Москва: Галерея Марины Чижовой, 2007. – 300 с.; Голдовский Б. Историческое развитие и сценическая жизнь русской драматургии театра кукол XVIII-XX вв.: автореферат дис. ... док. искусствовед. – Санкт-Петербург: 2007. – 21 с.; Голдовский Б. Куклы: Энциклопедия. – Москва: Время, 2004. – 469 с.; Голдовский Б., Смелянская С. Театр кукол Украины: страницы истории. – Сан-Франциско: 1998. – 275 с.; Соломоник И. Традиционный театр Востока. Основные виды театра плоских изображений. – Москва: Наука, 1992. – 312 с.; Соломоник И. Человек на сцене традиционного и нового театра кукол // Международный симпозиум историков и теоретиков театра кукол. – Москва: 1984. – С. 54-62; Романовский Е. Искусство театра кукол в контексте национальной культуры: автореф. дис.канд. искусствоведения. – Саранск: 2008. – 24 с.; Романовский Е. Искусство театра кукол в контексте национальной культуры. Монография. – Саранск: 2010. – 143 с.; Романовский Е. Национальное как эстетическое качество театра кукол // Журнал “Регионология”. – № 2. – 2008. – С. 347-349.; Нуржанов Н. Традиционный театр таджиков в двух томах. Т.2. – Душанбе: Мир Путешествий, 2002. – 372 с.

⁶ Костенко Л. Путешествие в Бухару русской миссии в 1870 г. – Санкт-Петербург: Изд-во. Н.И.Бортнеского, 1871. – 109 с.; Остроумов Н. Этнографические материалы. – Ташкент: Изд. дом, 1896. – 58 с.; Лыкошин Н. Народные развлечения у сартов // Газ. Русский Туркестан, 1990, № 10,15,17.; Самойлович А. Туркестанский устав “рисоля” артистов. Этнографический отдел Государственного Русского Музея. – Ленинград. – Москва: 1927. – С. 53-57.; Бартольд В. История культурной жизни Туркестана. – Москва: Изд.АН СССР, 1927. – 174 с.; Гаврилов М. Кукольный театр в Узбекистане.– Ташкент: Средазкнига, 1928. – 60 с.; Перепелицына Л. Узбекский народный кукольный театр – Ташкент: Государственное издательство художественной литературы Уз ССР, 1959. – 92 с.; Rahmonov M. O'zbek teatri. Qadimiy zamonlardan XVIII asr avvaliga qadar. – Toshkent: Fan, 1968. – 417 b.; Qodirov M. Xalq qo'g'irchoq teatri – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1972. – 237 b.; Qodirov M. Uzбекский традиционный театр кукол. – Ташкент: Издательство литература и искусства им Г.Гуляма, 1979. – 146 с.; Qodirov M. O'zbek xalq tomosha san'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1981. – 223 b.; Qodirov M. An'anaviy teatr dramaturgiyasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006. – 286 b.; Qodirov M. “O'zbek an'anaviy teatri” – Toshkent: Milliy kutubxona nashr, 2010. – 315 b.; Qodirov M., Qodirova S.Qo'g'irchoq teatri tarixi. – Toshkent: Talqin, 2006. – 204 b.; Qodirov M. Temuriylar davri tomosha san'atlari. Toshkent: San'at, 2007. – 216 b.; Qodirov M. Xalq qo'g'irchoq teatri. – Toshkent: San'at, 2022. – 204 b.

⁷ Ашурова М.Актёр создатель кукольного сценического образа. – Ташкент: Ташкентский государственный институт искусств имени Маннона Уйгура, 1995. – 15 с.; Юсупова В. Кукловождение работа с перчаточной куклой.–Ташкент: Инновация-зиё, 2020. – 150 с.; Hayitbayev Sh. Qo'g'irchoq teatri rejissurasi. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi Toshkent Davlat madaniyat instituti bosmaxonasi, 2007. – 59 b.; Turdiyeva I. Qo'g'irchoq boshqarish asoslari. O'quv-uslubiy qo'llanma. –Toshkent: Lesson Press, 2015 – 69 b.; Ubaydullayeva M. O'zbek qo'g'irchoq teatri dramaturgiyasining o'ziga xos xususiyatlari va sahna talqini muammolari. Fals. fan. bo'yicha PhD ilmiy dar. olish uchun diss.– Toshkent: O'zDSMI axborot-ressurs markazi, 2023. – 144 b.; Qobilova F. Mustaqillik davrida O'zbekiston qo'g'irchoq teatrlari ssenografiyasi. Fals. fan. bo'yicha PhD ilmiy dar. olish uchun diss. – Toshkent: Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti axborot-ressurs markazi, 2023. – 137 b.; Mamatqulov B. Teatr qo'g'irchoqlarini yasash texnologiyasining nazariy va amaliy asoslari. . Fals. fan. bo'yicha PhD ilmiy dar. olish uchun diss.– Toshkent: O'zDSMI axborot-ressurs markazi, 2025. – 121 b.; Umarxodjayeva M. O'zbekiston qo'g'irchoq san'atining shakllanish va rivojlanish bosqichlari. (XX asrning 30-yillari – XXI asr boshlari). Fals. fan. bo'yicha PhD ilmiy dar. olish uchun diss. – Toshkent: Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti axborot-ressurs markazi, 2025. – 137 b.

⁸ Мурадова (Махмудова) З. Музыка в кукольном театре. Личный архив. – Ташкент: 1989. – 61 с.

Sh.Ganixanovning⁹ tadqiqoti hamda poytaxt qo‘g‘irchoq teatri tarixi va jarayonlariga oid T.Yo‘ldoshev, H.Ikromov, I.Muxtarov, M.Muxtorova hammuallifligidagi “Teatr va yosh avlod”¹⁰ to‘plamini keltirish mumkin.

O‘zbek teatri san’atining dramaturgiyasi, rejissurasi, aktyorlik san’ati, ssenografiyasi yoritilgan tadqiqotlar ham mazkur dissertatsiya mavzusini yoritishda muhim sanaladi. Xususan, T.Tursunov, T.Bayandiyev, T.Islomov, S.Tursunboyev, H.Ikromov, I.Muxtarov, M.To‘laxo‘jayeva, J.Mahmudov, D.Rahmatullayeva, S.Qodirova, M.Umarov, O.Tojiboyeva, D.Qodirova, A.Ismoilovning¹¹ risola va monografiyalari, ilmiy tadqiqot ishlarini qayd etish mumkin.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalar bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi O‘zR FA San’atshunoslik institutining ilmiy tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq “O‘zbek sahnasida milliy va umuminsoniy qadriyatlar” mavzusidagi ilmiy yo‘nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi zamonaviy o‘zbek qo‘g‘irchoq teatri rejissurasi taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

qo‘g‘irchoq teatri rejissurasining kontseptual-nazariy asoslari hamda an’anaviy o‘zbek qo‘g‘irchoq teatriga xos estetik-funksional xususiyatlarni aniqlash;

professional qo‘g‘irchoq teatrining tarixiy bosqichlarida rejissuraning roli va ahamiyatini belgilash;

zamonaviy qo‘g‘irchoq teatri rejissurasida milliy sahna asarlari talqinlaridagi o‘ziga xos xususiyatlarni aniqlash;

xalq eposi va milliy ertaklar talqinlaridagi badiiy timsollar va sahnaviy ifodaning xususiyatlarini ochib berish;

tarixiy mavzudagi sahna asarlari asosidagi rejissyorlik izlanishlarini aniqlash;

zamonaviy sahna asarlarida zamon qahramoni obrazini talqin etish usullari va shakllarini aniqlash;

jahon adabiyoti asarlarini talqin qilishdagi o‘ziga xos yondashuvlarni asoslash;

⁹ Ганиханова Ш. Проблемы развития прикладных жанров в Узбекистане (на примере музыки для детей). Дисс. на соис. учен. степ. канд. искусствовед. – Ташкент: АН РУз институт Искусствознания, М(М) Г-19 1025/1, 2009. – 141 с.

¹⁰ Yo‘ldoshev T., Ikromov H., Muxtarov I., Muxtorova M. *Teatr va yosh avlod*. – Toshkent: ChP ISXAKOV, 2012. –180 b.

¹¹ Tursunov T. *XX asr o‘zbek teatr tarixi. 1900-2007 yy.* – Toshkent: ART PRISS, 2010. – 304 b.; Баяндиев Т. *Каракалпакский театр и время*. – Ташкент: Фан, 1971. – 220 с.; Isломov T. *Tarix va sahna*. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1998. – 240 b.; Tursunboyev S. *Horijiy teatr tarixi*. – Toshkent: Abu Ali Ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 1999. – 246 b.; Ikromov H. *Davr va teatr*. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2009. – 220 b.; Muxtarov I. *Teatr va klassika*. – Ташкент: Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма, 1988. – 169 с.; To‘laxo‘jayeva M. *Teatr tanqidchiligi: artist, rejissyor, spektakl*. – Toshkent: San’at, 2015. – 407 b.; Mahmudov J. *XX asr rejissurasi namoyondalari*. – Toshkent: O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti, 2015. – 202 b.; Rahmatullayeva D. *O‘zbek teatri: tarixiy drama*. – Toshkent: San’at, 2004. – 307 b.; Qodirova S. *Teatrdan hayot aksi*. – Toshkent: San’at, 2011. – 88 b.; Umarov M. *Mannon Uyg‘ur estetikasi*. – Toshkent: Musiqa, 2007. – 160 b.; Tojiboyeva O. *Epos va teatr (3 tom) T.1*. – Toshkent: San’at, 2015. – 236 b.; Qodirova D. *XX asr o‘zbek teatri ssenografiyasi*. – Tashkent: San’at, 2009. – 208 b.; Ismoilov A. *Zamonaviy o‘zbek drama teatri rejissurasi taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlari (1991-2016 yy.) Fals. fan. bo‘yicha PhD ilmiy dar. olish uchun diss.* – Toshkent: O‘z RFA San’atshunoslik instituti kutubxonasi, 2019. – 145 b.

zamonaviy o‘zbek qo‘g‘irchoq teatri rejissurasidagi yangi shakllar va uslublarni tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida zamonaviy o‘zbek qo‘g‘irchoq teatri rejissurasi belgilangan.

Tadqiqotning predmetini o‘zbek qo‘g‘irchoq teatrida sahnalashtirilgan turli mavzu, janr, yo‘nalish va shakllardagi spektakllar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tasnifiy, qiyosiy tahlil, faktologik, kompleks yondashuv usullari qo‘llanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o‘zbek qo‘g‘irchoq teatrining shakllanish va rivojlanish davrida (1930-1990) K.S.Stanislavskiy sistemasi asosidagi psixologik aktyorlik maktabi yuzaga kelgani natijasida jonli plandagi aktyor ijrosi hamda realistik qo‘g‘irchoq-qahramonlar vujudga kelgani, rok-opera, ertak-opera kabi murakkab musiqiy janrdagi spektakllarda dramatik hamda psixologik obrazlar talqin etilgani aniqlangan;

mustaqillikning dastlabki yillarida o‘zbek qo‘g‘irchoq teatrida xalq eposi, tarixiy mavzular, jahon klassikasiga e‘tiborning ortishi natijasida metaforaga boy ssenografik vositalar, falsafiy va romantik qahramon obrazini talqin etish tajribalari takomillashgani asoslangan;

globallashuv va raqamli texnologiyalar davrida multimedia, proeksiya, sensorli texnologiya, soya teatri elementlarining rivojlanishi natijasida “animant” konsepsiyasi, “gibrid” texnikasi, “ochiq animator”, “obyekt teatri” usullari, “niqob-qo‘g‘irchoq” kabi talqin vositalari hamda elektron kuy va ohanglardan keng foydalanilayotganligi dalillangan;

o‘zbek qo‘g‘irchoq teatri rejissurasi sobiq sovet davri (1930-1990), mustaqillikning ilk yillari (1991-2010) hamda globallashuv va raqamli texnologiyalar davri (2025 yilgacha kuzatilgan) singari rivojlanish bosqichlariga bo‘linishi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“Karagyo‘z” xalqaro qo‘g‘irchoq teatri forumida (16.10.2024, Ankara, Turkiya) o‘zbek qo‘g‘irchoq teatri rejissyorlarini tayyorlash bo‘yicha ta‘lim tizimi tarixi, bugungi holati va istiqboli masalalari yuzasidan amaliy qo‘llanmalar taqdim etilgani asoslangan;

O‘zbekiston teleradiokompaniyasining “O‘zbekiston tarixi”, “Madaniyat va ma‘rifat”, “O‘zbekiston” teleradiokanallarida o‘zbek qo‘g‘irchoq teatrining paydo bo‘lishi va zamonaviy holatiga oid teleko‘rsatuvlarda o‘zbek qo‘g‘irchoq teatri va rejissurasining o‘ziga xos xususiyatlari, taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha xulosalar aks etgani isbotlangan;

viloyat qo‘g‘irchoq teatrlarini rivojlantirish yuzasidan tavsiyalar Samarqand viloyati qo‘g‘irchoq teatri ijodiy jamoasining asarni sahnalashtirish jarayonlariga (“Ali Qushchi” tarixiy dramasi, A.Niyozov, F.Mirzayev, 2024) tatbiq etilgani asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo‘yilgani, mavzuni yoritishda sohaga doir o‘zbek va xorijiy tillardagi ishonchli adabiyotlarga asoslanilgani, tadqiqot natijalarining respublika va xalqaro ilmiy anjumanlarda

muhokama qilingani, mavzu yuzasidan seminar va davra suhbatlari, ommaviy axborot vositalarida chiqishlar qilingani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati olingan nazariy xulosalar o'zbek qo'g'irchoq teatri san'atida rejissuraning tutgan o'rnini chuqur tahlil etish, uning asosiy yo'nalishlarini aniqlash, yutuq va muammolarni tasniflash, zamonaviy qo'g'irchoq teatri rivojida ahamiyatini belgilash yuzasidan san'atshunoslik, teatrshunoslik yo'nalishlari bilan bog'liq mavjud manbalarni to'ldirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, unda ilgari surilgan nazariy fikrlarni rejissyorlarning amaliy faoliyatiga tatbiq etish, o'zbek qo'g'irchoq teatri rejissurasi tarixini tadqiq etish va shu sohada tahsil olayotgan talabalar uchun metodik qo'llanma sifatida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Zamonaviy o'zbek qo'g'irchoq teatri rejissurasining shakllanishi va rivojlanishi masalasi yuzasidan olingan ilmiy xulosalar asosida:

o'zbek qo'g'irchoq teatri rejissurasi sobiq sovet davri (1930-1990), mustaqillikning ilk yillari (1991-2010) hamda globallashtirish va raqamli texnologiyalar davri (2025 yilgacha kuzatilgan) singari rivojlanish bosqichlariga bo'linishi asoslangani va globallashtirish va raqamli texnologiyalar davrida multimedia, proeksiya, sensorli texnologiya, soya teatri elementlarining rivojlanishi natijasida "animant" konsepsiyasi, "gibrid" texnikasi, "ochiq animator", "obyekt teatri" usullari, "niqob-qo'g'irchoq" kabi talqin vositalari hamda elektron kuy va ohanglardan keng foydalanilayotganligi dalillanganini bilan bog'liq xulosalardan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining yillik hisoboti kengashida qo'g'irchoq teatrlari va dramaturglar faoliyatini baholashda foydalanilgan (O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2025-yil 6-oktyabrdagi 01-03/307 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, dramaturgiya va rejissuradagi yutuq va muammolarni aniqlash orqali kelgusida kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqishga xizmat qilgan;

o'zbek qo'g'irchoq teatrining professional shakllanish davrida K.S.Stanislavskiy sistemasi asosidagi psixologik aktyorlik maktabi yuzaga kelgani natijasida jonli plandagi aktyor ijrosi hamda realistik qo'g'irchoq-qahramonlar shakllanganini, rok-opera, ertak-opera kabi murakkab musiqiy janrdagi spektakllarda dramatik hamda psixologik obrazlar yuzaga kelgani aniqlanganini va mustaqillikning dastlabki yillarida xalq eposi, tarixiy mavzular, jahon klassikasiga e'tiborning ortishi natijasida metaforaga boy ssenografik vositalar, falsafiy va romantik qahramon obrazini talqin etish tajribalari takomillashgani asoslangani bilan bog'liq xulosalardan O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "Madaniyat va ma'rifat" telekanalida efitra ketgan "Ochiq namoyish" ko'rsatuvining ssenariysini takomillashtirishda foydalanilgan (O'zbekiston teleradiokompaniyasining 2023 yil 24 fevraldagi 01-02-01/35 sonli ma'lumotnomasi). Natijada tomoshabinning badiiy-tanqidiy savodxonligi yuksalishiga hamda bildirilgan kamchiliklar yuzasidan rejissyor va aktyorlar o'rinli xulosalarga ega bo'lib, spektaklni badiiy jihatdan mustahkamlashiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya natijalari 2 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazildi.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 23 ta ilmiy maqola nashr etilgan bo'lib, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta, xorijiy jurnallarda 2 ta ilmiy maqola nashr etildi.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tarkib topgan bo'lib, umumiy hajmi 144 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsad va vazifalari belgilangan, respublika fan va texnologiyalarning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqot predmeti va obyekti aniqlangan, muammoning o'rganilganlik darajasi aks ettirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ochib berilgan, natijalarning amaliyotga tatbiq etilganligi bayon etilgan, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishi to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Milliy qo'g'irchoq teatri rejissurasining nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobi ikki qismdan iborat. Mazkur bobda an'anaviy va zamonaviy o'zbek qo'g'irchoq teatri tarixi, rejissurasidagi muammolarni o'rganishga oid ilmiy adabiyotlarning tahliliy sharhi keltirilgan hamda o'zbek qo'g'irchoq teatri rejissurasi shakllanishi va rivojlanish bosqichlari, mustaqillik davrida qo'g'irchoq teatrini rivojlantirish yuzasidan davlat tomonidan amalga oshirilgan chora-tadbirlar bayon etilgan. Respublikada yetakchi bo'lgan davlat milliy qo'g'irchoq teatrlari rejissurasi tarixi, rejissyorlik talqinlariga oid ma'lumotlar o'rganilgan.

Bobning **“Tadqiqot mavzusining tarixiy-nazariy aspektlari”** deb nomlangan birinchi bo'limida o'zbek qo'g'irchoq teatri rejissurasini yoritishda muayyan bo'shliqlar mavjudligi, rejissyorlar faoliyati to'liq o'rganilmaganligi masalasiga to'xtalindi. Tadqiqotda o'zbek qo'g'irchoq teatri tarixining uch davri – an'anaviy, sovet yillari hamda mustaqillik davriga oid ijtimoiy-tarixiy hamda metodologik yondashuvdagi izlanishlar qamrab olingan. O'zbek an'anaviy qo'g'irchoq teatri tarixi to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlar U.Hayyom, P.Mahmud, A.Navoiy, X.Koshifiy singari allomalar ijodida sochma tarzda uchraydi. Bu ma'lumotlar XII-XV asrlarda amalga bo'lgan xalq qo'g'irchoq teatrining uch turi (“Chodir jamol”, “Chodir xayol”, “Fonus xayol”) to'g'risida aniq tasavvur uyg'otishi bilan ahamiyatli. Keyinchalik, L.Kostenko, N.Ostroumov, N.Likoshin, N.Martinovich, A.Samoylovich, V.Bartold¹²

¹²Костенко Л. Путешествие в Бухару русской миссии в 1870 г. – Санкт-Петербург: Изд-во Н.И.Бортнеского, 1871. – 109 с.; Остроумов Н. Этнографические материалы. – Ташкент: Изд. дом, 1896. – 58 с.; Лыкошин Н. Народные развлечения у сартов // Газ. Русский Туркестан, 1990, № 10,15,17.; Мартинович Н. Заметки о народном кукольном театре сартов. – Казань: Казанский Музейный Вестник, 1921, № 1-2.; Самойлович А. Туркестанский устав “рисоля” артистов. Этнографический отдел Государственного Русского Музея. – Ленинград-Москва: 1927. – С. 53-57.; Бартольд В. История культурной жизни Туркестана. – Москва: Изд. АН СССР, 1927. – 174 с.

singari rus etnograflari va elchilari solnomalarida, ilmiy maqolalarida an'anaviy o'zbek qo'g'irchoq teatrining XIX asrning oxiri – XX asrning boshlariga oid tarixi to'g'risida atroflicha ma'lumot berilgan. An'anaviy qo'g'irchoq teatri tarixiga oid qimmatli materiallar va dastlabki yaxlit tadqiqotlar M.Gavrilov, L.Perepelitsina¹³ tomonidan amalga oshirildi. Ularda an'anaviy qo'g'irchoq teatri “Chodir xayol” va “Qo'l qo'g'irchoq” singari ikki turdan iborat bo'lganligi to'g'isida mulohaza ilgari surilgani, ijrochilik uslubi, og'zaki dramaturgiya, qo'g'irchoqbozlar faoliyati va texnikasi borasida ilk ishonchli va tahliliy ma'lumotlar berilganligi bilan qadrli. O'zbek tilidagi dastlabki ma'lumotlar M.Solihov¹⁴ tomonidan beriladi. Tadqiqotchi XX asrning boshida faoliyat yuritgan qo'g'irchoqbozlar faoliyati to'g'risida so'z yuritadi. M.Qodirov, N.Nurjanov, S.Qodirova kabi olimlar¹⁵ tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda qo'g'irchoq teatrining turlari va atamalariga oydinlik kiritildi hamda an'anaviy qiyofasi yaxlit tadqiq etildi.

Professional o'zbek qo'g'irchoq teatri masalalariga oid umumiy qarashlar M.Ashurova, V.Yusupova, Sh.Hayitbayev, I.Turdiyeva, M.Ubaydullayeva, F.Qobilova, B.Mamatqulov, M.Umarxodjayevaning¹⁶ dramaturgiya, rejissura, qo'g'irchoq boshqarish texnikasiga oid tadqiqotlari, qo'g'irchoq teatri musiqasiga oid Z.Muradova (Maxmudova)ning¹⁷ ilmiy materiallari, Sh.Ganixanovanning¹⁸ tadqiqoti hamda poytaxt qo'g'irchoq teatri tarixi va jarayonlariga oid T.Yo'ldoshev, H.Ikromov, I.Muxtarov, M.Muxtorova hammuallifligidagi “Teatr va yosh avlod”¹⁹ to'plamini keltirish mumkin.

¹³Gavrilov M. Кукольный театр в Узбекистане. – Ташкент: Средазкнига, 1928. – 60 с.; Перепелицына Л. Узбекский народный кукольный театр. – Ташкент: Государственное издательство художественной литературы Уз ССР, 1959. – 99 с.

¹⁴Solihov M. O'zbek teatri uchun materiallar. – Toshkent: O'z SSR Davlat nashriyoti, 1935. – 97 b.

¹⁵Rahmonov M. O'zbek teatri. Qadimiy zamonlardan XVIII asr avvaliga qadar. – Toshkent: Fan, 1968. – 417 b.; Qodirov M. Xalq qo'g'irchoq teatri – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1972. – 232 b.; Qodirov M. Узбекский традиционный театр кукол. – Ташкент: Издательство литература и искусства им Г.Гуляма, 1979. – 148 с.; Qodirov M. O'zbek xalq tomosha san'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1981. – 223 b.; Нуржанов Н. Традиционный театр таджиков (в двух томах). Т.2. – Душанбе: Мир путешествий, 2002. – 372 с.; Qodirov M. An'anaviy teatr dramaturgiyasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006. – 360 b.; Qodirov M., Qodirova S. Qo'g'irchoq teatri tarixi. – Toshkent: Talqin, 2006. – 206 b.; Qodirov M. Temuriylar davri tomosha san'atlari. – Toshkent: San'at, 2007. – 216 b.; Qodirov M. Xalq qo'g'irchoq teatri. – Toshkent: San'at, 2022. – 204 b.

¹⁶Юсупова В. Кукловождение работа с перчаточной куклой. – Ташкент: Инновация-зиё, 2020. – 150 с.; Ашурова М. Актёр создатель кукольного сценического образа. – Ташкент: Ташкентский государственный институт искусств имени Маннона Уйгура, 1995. – 15 с.; Ashurova M. Mehrdan yaralgan olam. – Toshkent: 2018. – 157 b.; Hayitbayev Sh. Qo'g'irchoq teatri rejissurası. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi Toshkent Davlat madaniyat instituti bosmaxonasi, 2007 – 59 s.; Turdiyeva I. Qo'g'irchoq boshqarish asoslari (o'quv-uslubiy qo'llanma). – Toshkent: Lesson Press, 2015. – 69 b.; Ubaydullayeva M. O'zbek qo'g'irchoq teatri dramaturgiyasining o'ziga xos xususiyatlari va sahna talqinlari muammolari. Fals. fan. bo'yicha PhD ilmiy dar. olish uchun diss. – Toshkent: O'z DSMI axborot resurs markazi, 2023. – 144 b.; Qobilova F. Mustaqillik davrida O'zbekiston qo'g'irchoq teatrlari ssenografiyasi. Fals. fan. bo'yicha PhD ilmiy dar. olish uchun diss. – Toshkent: Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti axborot resurs markazi, 2023. – 135 b.; Mamatqulov B. Teatr qo'g'irchoqlarini yasash texnologiyasining nazariy va amaliy asoslari. Fals. fan. bo'yicha PhD ilmiy dar. olish uchun diss.– Toshkent: O'zDSMI axborot-ressurs markazi, 2025. – 121 b.; Umarxodjayeva M. O'zbekiston qo'g'irchoq san'atining shakllanish va rivojlanish bosqichlari. (XX asrning 30-yillari – XXI asr boshlari). Fals. fan. bo'yicha PhD ilmiy dar. olish uchun diss. – Toshkent: Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti axborot-ressurs markazi, 2025. – 137 b.

¹⁷ Мурадова (Махмудова) З. Музыка в кукольном театре. Личный архив. – Ташкент: 1989. – 61 с.

¹⁸ Ганиханова Ш. Проблемы развития прикладных жанров в Узбекистане (на примере музыки для детей). Дисс. на соис. учен. степ. канд. искусствовед. – Ташкент: АН РУз институт Искусствознания, М(М) Г-19 1025/1, 2009. – 141 с.

¹⁹ Yo'ldoshev T., Ikromov H., Muxtarov I., Muxtorova M. Teatr va yosh avlod. – Toshkent: ChP ISXAKOV, 2012. –180 b.

Yuqorida keltirilgan ilmiy manbalarning ko‘lamiga qaramay o‘zbek qo‘g‘irchoq teatri rejissurasiga oid tizimlashtirilgan yaxlit tadqiqotlar mavjud emasligi namoyon bo‘ldi.

Mazkur bobning ikkinchi bo‘limi **“O‘zbek qo‘g‘irchoq teatri rejissurasining shakllanish tarixi va rivojlanish bosqichlari”**ni o‘rganishga qaratilgan. O‘zbek qo‘g‘irchoq teatri rejissurasining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari mustaqillik davriga qadar sovet qo‘g‘irchoq teatridagi ijodiy jarayonlar bilan parallel kechdi. Bu davr rejissurasi estetik uslub va ifoda vositalariga tayanilgan holda shartli ravishda uch bosqichga bo‘lindi: boshlang‘ich shakllanish davri, barqarorlik va professionallashuv davri, izlanish va eksperimentlar davri. O‘zbek qo‘g‘irchoq teatri rejissurasining shakllanish davrida (1930-1940) rus rejissyorlari E.Demmeni hamda S.Obrazsovning sahna qonuniyati hamda psixologik ta‘sir ko‘rsatish tamoyillariga tayanildi. Aktyorlik san‘atida K.Stanislavskiy sistemasida psixologik aktyorlik maktabi yaratilganligi, qo‘lqopli qo‘g‘irchoqlardan voz kechmagan holda simli, mexanikali keng funksiyaga ega qo‘g‘irchoq turlaridan foydalanilgani, qo‘g‘irchoq sahnaning yagona va yetakchi ifoda vositasiga aylangani aniqlandi.

Barqarorlik va professionallashuv davrida (1950-1970) milliy qo‘g‘irchoq teatri dramaturgiyasining birmuncha shakllangani va mumtoz adabiyotga e‘tiborning ortgani sahna yechimlarida yangi tendensiyalarni yuzaga chiqardi. Bu borada V.Iogelsen, A.Ladin, N.Do‘stxo‘jayev, I.Yoqubov, T.Mahramov kabi rejissyorlarning faoliyati alohida ahamiyatga ega bo‘ldi. “Ur to‘qmoq” (xalq ertagi asosida, rej: N.Dudarova, 1952), “To‘ti va Qumri” (mual: M.Muhammedov, rej: B.Saxnovskiy, 1959), “Alijon va Valijon” (mual: A.Qobulov, rej: N.Do‘stxo‘jayev, 1966), “Alpomish” (xalq dostoni asosida, rej: T.Tursunov, 1969), “Kul, kulaver Oyxon” (mual: Hamza, rej:” A.Ladin, 1974), “Semurg” (mual: H.Olimjon, Zulfiya, rej: S.Somova, 1963), “Farhod va Shirin” (A.Navoiy dostoni asosida, rej: I.Yoqubov, 1975) “Oygul bilan Baxtiyor” (mual: H.Olimjon, Zulfiya, rej:” Y.Fridman, 1979) kabi qator milliy asarlar ustidagi izlanishlarda qo‘g‘irchoq teatrining an‘anaviy uslublari tiklandi. Jumladan, xalq qo‘g‘irchoq teatrining Korfarmon, Masxaraboz va Jarchilar obrazlarining sahna talqinlariga kiritilishi jonli plandagi aktyor ijrosining rivojlanishiga asos bo‘ldi. Bu tajribalarda qo‘g‘irchoq obrazlari, ijro uslublarida realizmga tayanilganligi, dekoratsiyada shartli yechimlardan foydalanilgani kuzatildi. Spektakllarning badiiy obrazli mazmunini chuqurlashtirish, hissiy ta‘sirini kuchaytirishda musiqiy ohanglar ahamiyatiga e‘tibor qaratildi. Milliy musiqiy ohanglarda sharqona jo‘shqinlik, shijoat, vatanparvarlik, do‘stlik tuyg‘ulari, qahramonlarning ichki olamini hamda xarakterini ifodalashda V.Meyen, M.Burxonov, A.Mansurov, S.Jalil kabi kompozitorlar asarlari muhim rol o‘ynadi.

Izlanishlar va eksperimentlar davrida (1980-1990) jahon qo‘g‘irchoq teatrlari tajribalariga intilish orqali sahna yechimlarida “postmodernizm” tamoyillariga tayangan holda kattalar uchun eksperimental spektakllarni yaratish tendensiyasi paydo bo‘ldi. Bu tajribalarda rejissyorlar yangi ifoda vositalarini izlashga intildi, falsafiy, abstrakt mavzular, B.Brextning “begonalashuv (остранение)” uslubiga qiziqish, obrazlar vositasida ijtimoiy tanqid elementlari paydo bo‘ldi. Ssenografiyada simvolizm tamoyillari ommalashdi. Jumladan, “Xoakin Muretaning yulduzi va o‘limi” (mual:

P.Neruda, rej: I.Yoqubov, 1982), “Manqurt afsonasi” (mual: Ch.Aytmatov, rej: V.Kamishev, 1989) kabi spektakllarda V.Akudin, N.Sultonov singari rassom-dekoratorlar falsafiy mavzuni ramziy bo‘yoqlarda aks ettirib, sahna sathini tomosha maydoniga aylantirdi.

Bu davrda dramaturgiyadagi g‘oyani va personajlar xarakterini sahnada to‘liq ifodalash va boyitishda kompozitorlarning musiqasi rassomlar pozitsiyasidan yuqori baholandi. Misol uchun, A.Berlin, M.Mahmudov, A.Mansurov, V.Saparov kabi kompozitorlarning “Волшебная серна” (mual: A.Qobulov, rej: M.Bobojonov, 1983), “Sirli nay” (mual: M.Halil, rej: M.Bobojonov, 1983), “Nasriddin Afandining 41 pashshasi” (mual: Z.Ag‘zam, rej: M.Bobojonov, 1985), “Paxtaoy” (ertak-opera, mual. V.Safarov, V.Borisov, rej. I.Yoqubov; 1988) singari spektakllarga yaratilgan namuna darajasidagi musiqiy kompozitsiyalarini aytish mumkin. Mazkur tajribalarda leytmotivlar bilan bir qatorda, har bir qahramonga xos individual mavzuli kuylar, milliy folklor elementlarini qamrab olish, tembrli ifoda hamda sahna harakatiga uyg‘un ritmik dinamika bilan ajralib turadigan musiqiy kompozitsiyalar yaratildi.

Dissertatsiyaning **“Zamonaviy o‘zbek qo‘g‘irchoq teatrida milliy asarlarning sahna talqinlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida milliy an‘analar va zamonaviy rejissura uyg‘unligi masalalari o‘rganildi. Xalq eposi, milliy ertaklar, A.Navoiy dostonlari, tarixiy shaxslar va zamon qahramoni obrazini talqin etish tamoyillari, insenirovka, ssenografiya, aktyorlik yechimi hamda qo‘g‘irchoq obrazlarida milliy ruh va badiiy to‘qimaning o‘ziga xos xususiyatlari viloyat teatrlari hamda Milliy o‘zbek qo‘g‘irchoq teatridagi tajribalarni tahlil qilish orqali yoritildi.

Bobning birinchi bo‘limi **“O‘zbek qo‘g‘irchoq teatri rejissurasi rivojida xalq eposi va milliy ertaklarning ahamiyati”**ni o‘rganishga qaratilgan. Zamonaviy rejissura xalq eposi va milliy ertaklarni sahnalashtirishda an‘anaviylik va innovatsion yondashuvlarni uyg‘unlashtirishga intilmoqda. Xalq ijodini sahnada talqin etish asosidagi tajribalarni o‘rganish davomida zamonaviy tendensiyalar paydo bo‘layotganligi aniqlandi. Eposni zamonaviy yondashuvlar bilan sahnaga moslashtirish, she‘riy nutq va sahna tili sintezi, sahna yechimlarida ramziy va falsafiy yondashuvlar, folklor kuy va qo‘shiqlardan faol foydalanish, “gibrid” teatr shakllarining qo‘llanilishi, interaktiv va immersiv usullar, aktyorlik improvizatsiyasi, organik ijro uslubi va boshqa tendensiyalar yuzaga chiqdi.

“Qanotli odamlar” (mual: N.To‘laxo‘jayev, rej: B.Parmonov, 1999), “Yurt tumori, To‘maris” (mual: T.Mirzo, rej: Sh.Yusupov, 2015), “Shiroq afsonasi” (mual: G.Qo‘ldosheva, rej: Sh.Yusupov, 2016), “Alpomish” (mual: J.Mahmud, rej: Sh.Yusupov, 2020), “Tohir va Zuhra” (mual: T.Mirzo, rej: Sh.Yusupov, 2022) spektakllarida ssenografiya muhim ahamiyat kasb etib, rassom g‘oyasi rejissyor maqsadi bilan uyg‘unlashadi. Jumladan, V.Akudin, B.Ismoilov, M.Ro‘zimetova singari rassomlar bahaybat dekoratsiya, shartli belgilardan uzoqlashib, birgina detal (arqon, mato) hamda qo‘g‘irchoq obrazlarining noodatiy ko‘rinishlari orqali ulkan g‘oyalarni ramziy tarzda tarannum etdi. Qahramonlik dostonlarida muhabbat mavzusi vatanparvarlik tuyg‘usi barobarida ulug‘lanishi, ruhiy kechinmalarning ta’sir kuchi ortishi musiqiy yechimlarga keng ahamiyat qaratish zaruratini yuzaga keltirdi.

Xususan, “Qanotli odamlar” spektaklida kompozitor A.Ikromov yaratgan romantik musiqalarda milliy va zamonaviy kuy ohanglari o‘zaro uyg‘unlashgan.

Mustaqillikning dastlabki yillarida xalq ertaklari asosidagi insseniroykalar yordamida komik xususiyatlarni bo‘rttirish orqali ijtimoiy, yumoristik, lirik-yumoristik komediya janrlaridagi spektakllar yaratildi. Jumladan, “Ur to‘qmoq” (rej: B.Yodgorxo‘jayev, 1991), “Uchar kovush” (“Zumrad va Qimmat” ertagi asosida, rej: B.Yodgorxo‘jayev, 1991) musiqali komediya janridagi spektakllarda asosiy e‘tibor musiqiy yechim va ssenografiyaga qaratildi. Mazkur tajribalarda o‘zbek xalq musiqasi cholg‘ularidan foydalanildi va XX asr so‘nggi choragidagi zamonaviy musiqiy texnika vositalari qo‘llanildi. Xususan, A.Mansurov bastalagan ko‘p qatlamli ohanglar spektakllarning komik xususiyatlarini yanada boyitishda, qahramonlar xarakteri, ichki olamini yoritishda xizmat qildi. Ssenografiyada realizm elementlari, hayotiy manzaralar tasviri ifodalandi. Xalq an‘analarini tiklash, masxaraboz, jarchilar obrazini kiritish orqali hajviylik, ijtimoiylik, tomosha dinamikasi yanada oshdi.

Mazkur bobning ikkinchi bo‘limi **“Alisher Navoiy poetik merosining rejissyorlik talqinlari”** deb nomlanib, buyuk mutafakkir dostonlarining qo‘g‘irchoq teatridagi rejissyorlik talqinlari tadqiq etilgan. Mustaqillik yillariga kelib, klassik adiblar ijodini asl boyligini saqlab qolgan holda sahnalashtirish imkoniyati paydo bo‘ldi. Xususan, A.Navoiyning ijodiga bo‘lgan e‘tibor rejissurada yangi talqin shakllari va uslublarini paydo qildi. Navoiy asarlaridagi yuqori falsafiy-poetik, irfoniy tushunchalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri sahnaga olib chiqish murakkab vazifa. Rejissyorlar bu murakkablikni sahnaviy metaforalar, harakat, rang, ovoz va plastika orqali ifodalashga harakat qilmoqda. Ssenograf va kompozitor o‘rtasidagi organik kollaboratsiya, ya‘ni musiqiy va tasviriy obrazlar uyg‘unlikda yaratilmoqda. Masalan, rejissyor Sh.Yusupovning “Bahrom va Dilorom” (2022) spektaklida har bir qahramonga alohida ranglar gammasi, musiqiy motiv va qo‘g‘irchoq plastikasi moslashtirilgan.

Boshqa spektakllarda sahnadagi qo‘g‘irchoq-obraz ko‘proq tashqi harakatlar orqali namoyon bo‘lsa, mutafakkir ijodi asosidagi tajribalarda qahramonning botiniy his-tuyg‘ularini ifodalash yetakchi vazifa sanaladi. Xususan, “Layli va Majnun” (rej: Sh.Yusupov, 2024) spektaklida Majnun qo‘g‘irchoq obrazi harakatsiz turadi, orqa fonda gulning purhasham tarzda uyg‘onuvchi video yozuvi yoritiladi. Bu ichki iztirobning obrazli ifodasi bo‘lib, rejissyorning texnik-ifodaviy yondashuvi hisoblanadi. Qo‘g‘irchoq qahramonning psixologik holatini ramziy aks ettirish natijasida obraz ichki dinamikaga ega qahramon sifatida namoyon bo‘ladi. Ayrim rejissyorlar Navoiy siymosini spektaklda gavdalantirib, u orqali ma‘naviy-ahloqiy g‘oyalarni tarannum etmoqda. Bu – keysli yondashuv, ya‘ni Navoiyning o‘z so‘zi bilan syujetga baho berishi bola ongida to‘g‘ri xulosani shakllantirishga yordam beradi. Jumladan, “Sher bilan durroj” (rej: N.Matniyozova, 2020) spektaklida Navoiy obrazi kitobning bola kamolotidagi yuksak ahamiyati to‘g‘risidagi masalalar borasida mulohaza yuritadi. Navoiy dostonlari bir necha makon va vaqt qatlamlarini qamrab olganligi bois, rejissyorlar dinamik ssenografiyadan foydalanadi, ya‘ni sahnada bir qo‘g‘irchoq harakat qilsa-da, orqa plandagi yuzta jonli mayda panellar (yorug‘lik, tuman, daraxt) muhitni uzluksiz o‘zgartiradi. Mazkur tajribalarda qo‘g‘irchoq va jonli

plandagi aktyor ijrosini uyg'unlashtirish, ya'ni "gibrid" usulidan keng foydalanilmoqda. Xususan, "Bahrom va Dilorom" (rej: Sh.Yusupov) spektaklida moniy, raqqosa qizlar, ohular obrazini jonli plandagi aktyorlar ijro etsa, bosh qahramonlar qo'g'irchoqlar orqali gavdalantiriladi.

